



## TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI AKTIVLARNING YUZAGA KELISH SABABLARI VA ULARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

*PhD Togayev Salim Sobirovich*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali*

**Ochilova Ibodot G'ulom qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali*

**Amanov Abbos Xo'jaxon o'g'li**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali*

**Annotatsiya.** Maqolada tijorat banklarida aktivlarni tarkibi va ularni guruhlash, muammoli aktivlarning yuzaga kelish sabablari hamda ularni paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, ularning tahlili asosida o'rganilgan. Shuningdek, banklarning kreditlash jarayonidagi muamoli kreditlarga olib keluvchi belgilari ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** bank aktivlari, muammoli aktivlar, kredit, kredit siyosati, muammoli aktivlar, kredit portfeli, shubhali kreditlar, umidsiz kreditlar, kredit riski.

## ПРИЧИНЫ ПРОБЛЕМНЫХ АКТИВОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НИХ

*PhD Тогаев Салим Собирович*

*Самаркандский филиал Ташкентского государственного*

*экономического университета*

**Очилова Ибодат Гулом кизи**

*Самаркандский филиал Ташкентского государственного*

*экономического университета*

**Аманов Аббос Хужахон угли**

*Самаркандский филиал Ташкентского государственного*

*экономического университета*

**Аннотация.** В статье на основе их анализа изучена структура активов коммерческих банков и их группировка, причины возникновения проблемных активов, а также внутренние и внешние факторы, влияющие на их появление. Также освещены признаки, которые приводят к приему кредитов в процессе кредитования банков.

**Ключевые слова:** активы банка, проблемные активы, кредит, кредитная политика, проблемные активы, ссудный портфель, сомнительные кредиты, безнадежные кредиты, кредитный риск.

## CAUSES OF PROBLEM ASSETS OF COMMERCIAL BANKS AND FACTORS INFLUENCING THEM

*PhD Togaev Salim Sobirovich*

*Samarkand branch of Tashkent State University of Economics*

**Ochilova Ibodot Gulom qizi**

*Samarkand branch of Tashkent State University of Economics*

**Amanov Abbos Xo'jaxon o'g'li**

*Samarkand branch of Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** In the article, the structure of assets in commercial banks and their grouping, the reasons for the emergence of problem assets and the internal and external factors affecting their emergence, based on their analysis, are studied. Also, the signs that lead to acceptable loans in the lending process of banks are also covered.

**Keywords:** bank assets, problem assets, credit, credit policy, problem assets, loan portfolio, doubtful loans, bad loans, credit risk.

### **Kirish.**

Xalqaro amaliyotda aktivlarning mohiyati keng ma'noda avval amalga oshirilgan operatsiyalar, mol-mulk xarid etish yoki o'z mol-mulkini uchinchi shaxslarga vaqtincha foydalanishga berishlik bilan kelajakda olinadigan iqtisodiy manfaatlar tushuniladi. Kelajakdagi iqtisodiy manfaatlar esa aktivlarning o'z egalariga ishlab chiqarish jarayonlaridan foydalanishdagi, majburiyatlarni to'lab berishdagi yoki majburiyatlarni boshqa aktivlarga almashtirib berishdagi xususiyatiga bog'liq.

Tijorat banklarining aktivlari – bu tijorat banklarining resurslarini joylashtirish va ulardan oqilona foydalanishni o'zida aks ettirgan buxgalteriya balansidan iborat. Mamlakatimizda tijorat banklarining buxgalteriya balansi 2 ta tarkibiy qismdan: passiv va aktivlardan iborat. Bank aktivlari balansning aktiv qismida olib boriladi. Odatda bank aktivlari aktiv operatsiyalar natijasida hosil bo'ladi. Tijorat banklari tomonidan o'z va jalb etilgan pul mablag'laridan ma'lum daromad olish va o'zining likvidligini ta'minlash maqsadida olib boradigan operatsiyalari aktiv operatsiyalar deyiladi.

Tijorat banklari jalb qilingan mablag'lardan ko'pincha kredit berish tarzida foydalanib kelinadi, bunda nafaqat daromad olish, balki mablag'larni "kredit oluvchi"dan to'laligicha undirib olish masalasini oldindan aniqlab olishi zarur. Chunki, "bank sarmoya egasi sifatida sarmoyani emas, balki sarmoyadan foydalanishni ma'lum bir shart va ustama foizlar bilan sotadi" (Drobozina, 2000).

Ayni paytda mamlakatimizda ham ilmiy-nazariy hamda amaliyotchilar doiralarida "muammoli aktiv" tushunchasi avvalgiga nisbatan ancha ko'proq qo'llanilmoqda va bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu albatta, bekorga emas, chunki respublikamiz bank tizimining kredit portfelida muammoli aktivlarning ulushi rivojlangan mamlakatlar bank tizimining kredit portfelida muammoli aktivlarning ulushiga nisbatan yuqori foizni tashkil etmoqda.

Bugungi kunda ko'p davlatlar bank tizimida umidsiz qarzlarning ko'payishi muammosiga duch kelayotganligi sababli banklarning muammoli aktivlari bilan ishlash mexanizmini rivojlantirish masalalari dolzarbligi ortib boraveradi. Shuning uchun kreditorlar, shu bilan birga kreditni undirish bo'yicha qiyinchilikni boshdan kechirayotgan qarzdor-mijoz qay tariqa yo'l tutmog'i kerak?- degan savolning paydo bo'lishi bejiz emas.

Jahon tajribasi dalolat berishicha, shubhali va umidsiz qarzlarning bilan tasniflanuvchi aktivlarning sifati ko'p hollarda bank tizimidagi barqarorlikning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi, shuningdek, sohani tashkil etuvchi asosiy banklari muammolari butun to'lov tizimining amal qilishiga va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchiga sezilarli darajada salbiy ta'sir etishi mumkin.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Ilmiy adabiyotlarda muammoli aktivlarga bir qancha ta'riflar berish borasida turli xil xulosalar keltirilgan. Ayrim adabiyotlarda, tijorat banklari faoliyatida xavfli bo'lgan kredit qo'yilmalar – bu muammoli aktivlar shakliga kirgan qo'yilmalardir deb ta'riflansa, ayrim adabiyotlarda muammoli aktivlar deganda, ob'ekti, subyekti va ta'minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo'lgan kredit deya ta'rif berilgan.

Bank menejmenti sohasida samarali ilmiy tadqiqotlar olib borgan amerikalik mutaxassis Piter Rouzning fikricha, qarz oluvchi bir yoki bir necha to'lovlarni amalga oshirmaganligi yoki kredit ta'minoti qiymatining pasayishi kreditni muammoli aktivlar turkumiga o'tishini anglatadi (Rouz, 1997).

Rossiya adabiyotlarida ayrim mualliflarning ta'kidlashicha, muammoli aktiv deganda ob'ekti, sub'ekti va ta'minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo'lgan kredit tushuniladi (Lavurshina, 2002). Ularning fikricha, muddati o'tmagan joriy kreditlardan tashqari barcha kreditlar, shu jumladan asosiy to'lov hamda kredit foizlari bo'yicha qisqa muddatli bo'lsa ham qarzdorlikka ega bo'lgan, shuningdek, kredit shartnomasi shartlarini o'zgartirmasdan hech bo'lmasa bir marotaba qayta rasmiylashtirilgan kreditlar muammoli deb tushuniladi. Bu ta'rifning oxirgi jumlasini ozgina noaniq bo'lib qolgan, sababi kreditni qayta rasmiylashtirilganda shartnoma moddalari o'zgaradi, bu shartlarni o'zgartirmaslik esa kreditni qayta rasmiylashtirishning mos emas.

Holbuki, muddati o'tgan kreditni asl ma'nosiga ko'ra muammoli aktivlar deb bo'lmaydi, chunki kredit bo'yicha ilk to'lovlarning qisqa muddatga cho'zilishi uning umuman qaytmaslik xavfini anglatmaydi. Biroq kreditni so'ndirish bo'yicha to'lovlarning o'z vaqtida bo'lishi uning ishonchli ekanligini kafolatlamaydi, ya'ni ayni paytda o'z vaqtida qaytarilayotgan kredit kelgusida ishonchsiz kreditlar safiga o'tib qolishi ham mumkin.

Shu bilan birga, kreditlash tamoyillarining buzilishi bank uchun kreditlash jarayonini tashkil etish vaqtida yechilishi kerak bo'lgan katta muammodir. Bu tamoyillarning barchasi kredit shartnomasi

shartlarida to'liq aks etganligi uchun muammoli aktivlarga ta'rif berishda kredit shartnomasi shartlarining buzilishi jumlasining ishlatilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mu'lumki, amaliyotda "substandart", "shubhali" hamda "umidsiz" sifatida tasniflangan kreditlar muammoli aktivlar hisoblanadi (Yo'riqnoma, 2015).

Xalqaro Bazel qo'mitasining tegishli me'yoriy hujjatlarida banklarning muammoli aktivlari quyidagicha ta'riflangan: "Bank oldidagi majburiyatlarni bajarish muddati sezilarli darajada yomonlashgan, qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yoki sifati sezilarli darajada yomonlashgan yoki garov ta'minoti yo'qolgan kredit mahsuloti"<sup>37</sup>.

Dudnets muammoli bank aktivlarini ularning qaytarilishiga shubha tug'diruvchi yoki ularni joylashtirish yoki ishlatishdan iqtisodiy foyda olishi dargumon bank aktivlari sifatida ko'radi (Dudynets, 2015).

Yana bir mahalliy olim (Tuxtabayev, 2006) muammoli kreditlarga quyidagicha ta'rif beradi: Mahalliy olimlarimiz esa muammoli kreditlarga quyidagicha ta'rif beradi: kredit risklarining amalda yaqqol namoyon bo'lishining natijasi bo'lib, obyektiv hamda subyektiv sabablarga ko'ra kredit shartnomasi shartlarining buzilishi oqibatida "substandart", "shubhali" hamda "umidsiz" kreditlar kategoriyasiga o'tib qolgan kreditlarga muammoli kreditlar deyiladi

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur maqolada tijorat banklarida muammoli aktivlarning yuzaga kelish sabablari hamda ularga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, statistik usullar, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Xalqaro amaliyotda tijorat banklarining balans hisobotiga ko'ra aktivlar quyidagi moddalarga ajratiladi:

1. Kassadagi pul mablag'lari, unga tenglashtirilgan pul xujjatlari va mamlakat markaziy bankining hisobraqamidagi pul mablag'lari;

2. Davlat qarz majburiyatlari (davlat qimmatli qog'ozlari);

3. Kredit muassasalaridagi pul mablag'lari;

4. Qayta sotish uchun mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan sof qo'yilmalar;

5. Kredit bo'yicha sof qo'yilmalar;

6. Kreditlar va boshqa depozitlar bo'yicha hisoblangan foizlar;

7. Lizingga berilgan vositalarga yo'naltirilgan mablag'lar;

8. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va kambaholi va tez eskiruvchan predmetlar;

9. Qimmatli qog'ozlarga va ulushlarga qilingan uzoq muddatli investitsiyalar;

10. Boshqa operatsiyalar uchun kelgusi davr xarajatlari;

11. Boshqa aktivlar.

Tijorat banklari aktivlarini quyidagi me'zonlar bo'yicha guruhlariga ajratiladi:

- yo'nalishiga ko'ra;

- likvidliligiga ko'ra;

- qaltislik darajasiga ko'ra;

- joylashtirilish muddatlariga ko'ra;

- subyektlar tarkibiga ko'ra.

Tijorat banklari kreditlash jarayoni dastlab, bank kredit siyosatini ishlab chiqishdan boshlanadi.

Ma'lumki, kredit siyosati kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va hodimlarni kredit portfelini samarali boshqarishga oid ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. Ya'ni, kredit resurslarini joylashtirishdagi qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi qoida va cheklashlar majmui hisoblanadi.

<sup>37</sup> The official website of the Basel Committee of the Basel III: international regulatory framework for banks <https://www.bis.org/BCBS/>



1-rasm. Tijorat banklari aktivlarini guruhlash<sup>38</sup>

Unda muammoli aktivlar bilan bog'liq bo'lgan holatlarni aniqlash va tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish tajribalari ko'rsatilishi Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida belgilangan. Biroq, kredit siyosatida kreditlash jarayonida muammoli aktivlarning yuzaga kelishini oldini olish choralari ko'rsatilmagan. Vaholanki, muammoli aktivlarning elementlari kreditlash jarayonining ilk bosqichlarida yuzaga kelmoqda. Xalqimizda shunday naql bor: "kasalni davolagandan ko'ra, uning oldini olgan ma'qul".

Amaliyotda banklar tomonidan o'z mijozlarini kreditlash hamisha samarali natijalar bilan yakullanavermaydi. Ayrim hollarda korxonaning o'z biznes-rejalarining nomukammal ishlab chiqishlari va faoliyatini maqsadli amalga oshirilmaganliklari, shuningdek, boshqa har xil sabablar oqibatida banklar tomonidan taqdim etilgan kreditlarning vaqtida undirilish muammosi yuzaga keladi. Albatta, muammoli aktivlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi va ularni vujudga keltirishning o'ziga xos omillari mavjud bo'ladi. Muammoli aktivlarni keltirib chiqaradigan omillarning belgilari, kreditning mo'ljallangan maqsadlari bo'yicha ishlatilmasligi, shartnoma, biznes reja, texnik-iqtisodiy asoslash va boshqa kredit hujjatlarida ko'rsatilgan ishlarning amalga oshmasligi, qarz oluvchining moliyaviy-iqtisodiy ahvolidan yomonlashish tendensiyasi va boshqalar bo'lishi mumkin. Kredit monitoringini doimiy ravishda olib borilmasligi natijasida kreditning asosiy qarzi va uning foizini qaytarish borasida uzilishlarga olib kelmoqda.

Muammoli aktivlar birdaniga sodir bo'lmasdan uning elementlari kreditlash jarayonida asta-sekin yuzaga kela boshlaydi. Muammoli aktivlarning doimiy monitoring olib borilmasligi natijasida ham sodir bo'ladi. Monitoring jarayonida qarzdorning buxgalteriya hisobotlarida moliyaviy kamchiliklar aniqlangandan so'ng, bank xodimi albatta korxonaga tashrif buyurishi (mijoz ofisiga) kerak. Kreditdan unumli foydalanish joylarda, korxonada va tashkilotlarda, qoida tariqasida, har chorakda tekshirilishi kerak. Kreditlash jarayonida yo'l qo'yilgan xato bank kredit siyosatining noto'g'ri tuzilganligidan dalolat beradi.

Muammoli aktiv asosan kredit portfelidagi kreditlarning foizlari bilan qaytarishda imtiyozli davrning ko'p berilishida kuzatilmoqda. Shuningdek kredit monitoringida doimiy nazoratning olib borilmasligi va uning natijasida kredit va unga to'lanadigan foizlarni vaqtida to'lanmasligi, oxir-oqibatda mijozning kreditorlik yukini oshib ketishi va uni to'lash bo'yicha moliyaviy holatining yomonlashuviga olib kelmoqda.

Muammoli aktivlarning kelib chiqish sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, banklarning muammoli aktivlarini yuzaga kelishida ichki omillari bo'yicha 67% yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Bu ko'rsatkich tashqi omillar bo'yicha bor-yo'g'i 33%ni tashkil etadi.

<sup>38</sup> Ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

## 1-jadval

Muammoli aktivlarni kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar<sup>39</sup>

No	Ta'sir etuvchi omillar	darajasi (%)
<b>Ichki omillar</b>		67 %
1	Ta'minot yetishmasligi	22 %
2	Ssuda buyurtmasini o'rganishda axborotni noto'g'ri baholash	21 %
3	Operatsiya nazoratining zaifligi hamda dastlabki ogohlantiruvchi belgilarni o'z vaqtida aniqlanmaslik va ular yuzasidan tegishli choralar ko'rmaslik	18 %
4	Garov ta'minoti sifatining pastligi	5 %
5	Shartnomada ko'rsatilgan ta'minotni olish imkoniyati yo'qligi	1 %
<b>Tashqi omillar</b>		33 %
6	Kompaniyaning bankrot bo'lishi	12 %
7	Kreditorlarning qarzlarni qaytarishni talab qilishi	11 %
8	Kompaniya'ning bozorda o'z o'rnini yo'qotishi va ichki ijtimoiy muammolar	6 %
9	O'g'irlik, muttahamlik	4 %

Ularning ba'zilari qarzdor-mijozning faoliyati bilan, boshqalari esa bank faoliyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

## 2-jadval

Muammoli aktivlar kelib chiqishiga qarzdor bilan bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan omillar tasnifi<sup>40</sup>

Qarzdor mijozning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan omillar	Qarzdor mijozning faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan omillar
korxonani to'g'ri boshqara olmaslik.(yuqori tajribaga ega emasligi, reja va buxgalteriya faoliyatlarini sifatsiz tashkil etilishi, xo'jalik yuritish jarayonining barcha jabxalarini qamrab ololmaydigan xaddan tashqari markazlashgan boshqaruv)	asosan kutilmagan siyosiy hamda iqtisodiy voqea va hodisalar, qonunchilikda bo'layotgan o'zgarishlar, iqtisodiy holatning keskin yomonlashuvi,
Mijoz faoliyatining samarasizligi mahsuloti sifatining pasayishi, uni bozordan chiqib ketishi,	ma'lum darajadagi texnologik ya'ni ishlab chiqarishning ma'naviy eskirishi
korxonada moliyaviy nazoratining kuchsizligi,	tabiiy ofatlar.
debitorlik qarzdorlikning ko'payib ketishi	debitorlik qarzlarni, xom-ashyo yetkazib beruvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklarni, o'g'irlik

Kreditlash jarayoning ilk bosqichlarida bank tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklar natijasida muammoli ssudalar paydo bo'ladi. Bo'larga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ❖ loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslanishini etarli darajada tahlil qilinmasligi;
- ❖ mijozning moliyaviy holatiga to'g'ri baho berilmaganligi, kreditni chuqur iqtisodiy tahlil qilish asosida emas, balki tanish-bilishchilik asosida berish;
- ❖ korxonaning o'ziga xos tarmoq xususiyatlarini, uning haqiqiy ehtiyojlari haqida yuzaki tasavvurga ega bo'lish oqibatida kreditni risklilik darajasini noto'g'ri hisoblanishi;
- ❖ qarzdorning kredit mablag'laridan foydalanishi ustidan monitoringning yaxshi olib borilmasligi, ya'ni qarzdorning moliyaviy holati yomonlashishi, pul oqimlarining salbiy dinamikasi holatlarida kreditni restrukturizatsiyalash hamda kredit statusini o'zgartirishni qamrab oluvchi choralarni o'z vaqtida ko'rmaslik;
- ❖ hujjatlarning to'liq talab qilinmaganligi;
- ❖ kredit mablag'ining biznes rejada ko'rsatilgan maqsadlarga ishlatilmasligi hamda mablag'ning xufiyona o'zlashtirilishi;

<sup>39</sup> Jahon banki malumotlari [www/woldbank/org](http://www/woldbank/org)

<sup>40</sup> Ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

- ❖ kredit ta'minoti sifatida taklif etiladigan garov predmetining talabga javob bermasligi yoki garovni yuqori baholash natijasida kredit ta'minotining yetarli bo'lmasligi;
- ❖ bank xodimlari bilan o'zaro til biriktirib, kredit mablag'ini talon-taroj qilish;
- ❖ kreditni noto'g'ri rasmiylashtirilishi, masalan, kredit shartnomasida kreditor-bank manfaatlarini himoya qiladigan shartlarning yetarli emasligi;
- ❖ kreditdan foydalanish davrida qarzdorning faoliyati ustidan nazoratning sustligi va boshqalar.

### Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi va boshqa qator sabablar u yoki bu darajada kreditlash jarayonini buzilishiga olib keladi hamda qarzdor bilan bir qatorda kreditor bankning ham barqarorligiga ziyon yetkazadi. O'z-o'zidan ma'lumki, oqibati, natijalari birdaniga ko'rinmaydi. Ular sekin-asta kapital aylanishiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi boshlaydi. Ular qarzdor-mijozning moliyaviy holatini, uinng ishlab chiqarish faoliyatini hamda kreditlashni tashkil etish jarayonini aks ettiruvchi o'ziga xos belgilar orqali namoyon bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kredit bo'limi xodimlari yuqorida ko'rib chiqilgan belgilar bilan muammoli aktivlarni hamda ularni kelib chiqish sabablarini aniqlagandan keyin ularni bartaraf etish choralarini topishlari lozim bo'ladi.

Bizningcha mamlakatimiz tijorat banklarida muammoli kreditlar yuzaga kelishini oldini olish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- ✓ bank mijozning kredit siyosati va kreditlash tamoyillari shartlariga rioya etilishini nazorat qilishi hamda kreditlash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni baholash, ularni tahlil qilishi;
- ✓ kredit arizasini ko'rib chiqilayotgan davrda mijoz tomonidan bankka taqdim etayotgan hujjatlar to'plamining to'liqligini va ularning to'g'riligini tekshirish hamda banklarga kredit uchun kelib tushgan ariza bo'yicha mijozning xarakteriga, uning moliyaviy ahvoriga, biznes hamkorlari orasidagi mavqeiga va ushbu sohadagi tajribasiga asosiy e'tiborni qaratish;
- ✓ korxonaning mol-mulkini baholashda bankning o'zi ham mulkni mustqil e-baholash tizimida baholashi lozim hamda kredit ta'minoti sifatida taqdim etilgan mol-mulkni doimiy ravishda nazorat qilib borish;
- ✓ kredit ajratilgan davrdan boshlab, mijozning biznes-rejasi bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarini, mablag'lar aylanmasini doimiy ravishda nazorat qilib borish;
- ✓ muammoli kreditlarni boshqarishning yangi usullarini shakllantirish va domoiy ravishda amaliyotda qo'llash.

### Adabiyotlar / Литература / Literature:

Salim Togaev, & Aslbek Utkirov. (2023). *The impact of human resources on improving the quality of financial services. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(7), 474–479.

Yo'riqnoma (2015) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015 yil 14 iyulda 2696-sonli «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahiralarni shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomasi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

Дробозина Л.А. (2000). Финансы, денежное обращение, кредит – Москва. ЮНИТИ, - 329 с.

Дудинец Л.А. (2015). Теоретические подходы к определению сущности проблемных активов банка. Экономика и банки, (2), 28-35. извлечено от <https://ojs.polestu.by/EB/article/view/398>

Лаврушина О.И. (2002). Управление деятельностью коммерческого банка (банковский менеджмент) / – М.: Юристъ, -456-с.

Роуз П. (1997). Банковский менеджмент. Пер. С англ. –М.: Дело,-192 с.

Тобаев, С. (2019). Bank risklari o'qiv qo'llanma.

Тухтабаев У.А. (2006). Муаммоли кредитлар ва уларни бартараф этиш йўллари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун автореферати. –Т.: